

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLAN-TIRISHDA
QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI**

Ashuraliyev Shukurjon Rahmonjon o'g'li

Talaba.

Yusupov Bunyodbek Umirzoq o'g'li

Talaba.

Ro'zmetov Diyorbek San'atbek o'g'li

Talaba.

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU, O'zbekistan,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18892475>

Annotatsiya. O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat sohasini rivojlantirishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni va strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Maqolada agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, klaster tizimi, zamonaviy agrotexnologiyalar va innovatsion logistika yechimlarining oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi hamda samaradorligiga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish, qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish va qayta ishlash sanoatini kengaytirish orqali ichki bozor barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash oziq-ovqat tarmog'ini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi hamda sohani yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar natijasida erishilayotgan yutuqlar, tarmoqqa keng joriy etilayotgan ilm-fan yutuqlari va klasterlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishining hajmi agrar soha, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, aholi bandligi, klaster, eksport.

Аннотация. В статье анализируется роль и стратегическое значение сельского хозяйства в развитии продовольственного сектора экономики Узбекистана. Сельское хозяйство является важной составляющей валового внутреннего продукта страны и ключевым фактором обеспечения населения высококачественными и безопасными продуктами питания, повышения экспортного потенциала и укрепления продовольственной безопасности. Описывается влияние проводимых реформ в аграрном секторе, кластерной системы, современных агротехнологий и инновационных логистических решений на объемы и эффективность производства продуктов питания.

Особое внимание уделяется также вопросам обеспечения стабильности внутреннего рынка за счет эффективного использования ресурсов в сельском хозяйстве, развития цепочки добавленной стоимости и расширения перерабатывающей промышленности. Результаты исследования показывают, что модернизация, цифровизация и поддержка экспортно-ориентированного производства сельскохозяйственной продукции являются важными условиями устойчивого развития

продовольственной цепочки, и разработаны предложения и практические рекомендации по дальнейшему развитию сектора.

Ключевые слова: Достижения, полученные в результате реформ в аграрной отрасли экономики, широкое внедрение научных достижений в эту отрасль, а также объемы сельскохозяйственного производства кластерами. Аграрный сектор, сельское хозяйство, крестьянское хозяйство, занятость, кластер, экспорт.

Abstract. The role and strategic importance of agriculture in the development of the food sector in the economy of Uzbekistan are analyzed. Agriculture is an important component of the country's gross domestic product and is a key factor in providing the population with high-quality and safe food products, increasing export potential, and strengthening food security. The article highlights the impact of reforms being implemented in the agrarian sector, the cluster system, modern agrotechnologies, and innovative logistics solutions on the volume and efficiency of food production. Special attention is also paid to the issues of ensuring the stability of the domestic market through the efficient use of resources in agriculture, the development of the value-added chain, and the expansion of the processing industry. The results of the study show that the modernization, digitalization, and support for export-oriented production of agriculture are important conditions for the sustainable development of the food chain, and proposals and practical recommendations for the further development of the sector are developed.

Keywords: The achievements achieved as a result of reforms in the agricultural sector of the economy, the achievements of science being widely introduced into the sector, and the volume of agricultural production by clusters. Agrarian sector, farming, peasant farming, employment, cluster, export.

Kirish. Qishloq xo'jaligi tarmog'i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari qishloq aholisi uchun ish o'rinlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqib, dunyoda hanuz davom etayotgan global iqtisodiy inqirozga bog'liq jiddiy muammolar sababli jahon bozorida yalpi talab hajmining keskin pasayib ketishi, raqobatning jiddiy ko'rsatkichlarda kuchayib borishi milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatdan tarkibiy o'zgartirish va tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ko'p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish orqali bandlikni ta'minlash, yurtimizda aholi daromadi va hayot farovonligini yaxshilashning eng samarali va tizimli yo'nalishlarini joriy qilishni taqozo etmoqda. Jahonda rivojlangan mamlakatlarni ham iqtisodiy noqulay holatlarga solib kelayotan turli inqirozlar tufayli aholi hayot farovonligiga jiddiy salbiy ta'sirlar kuzatilayotgan davrda qishloq xo'jaligi tarmog'i taraqqiy etgan mamlakatlarda insonlar hayoti farovonlik darajasining ijobiy holati saqlanib kelinmoqda. Bu hozirgi davrda barcha mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ining eng muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi.

Agrar sektor O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, bu yurtimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohalari uchun xomashyo manbai bo'lish bilan birga O'zbekistonning tashqi savdo jarayonlarida eksport salohiyati barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.[1]

Aholi soni izchil o'sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb bo'lib bormoqda. Buning ustiga, global iqlim o'zgarishlari, yer va suv taqchilligi qishloq xo'jaligida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitga qaramasdan, bu yil yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko'p go'sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha 343 ta loyiha ishga tushirildi.

Shu bilan birga, mahalliyashtirish bo'yicha hali imkoniyatlar ko'p. Ayniqsa, non, sut, go'sht, o'simlik yog'i, qandolat va salqin ichimliklar ishlab chiqarishni oshirish kerak. So'nggi yillarda qandolat mahsulotlari eksporti 4 karra oshib, 13 million dollarga yetgan. Xomashyo, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlari to'g'ridan to'g'ri olib kelinib, tannarx 20 foizga kamaygani tufayli raqobatdoshlik ancha oshgan. Bu imtiyozlar muddati 2025-yil 1-yanvarda tugaydi. Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur muddatni yana 2 yilga uzaytirish taklifi ko'rib chiqilmoqda. Yog'-moy sanoatida 408 ta korxona ochilgan. Lekin yurtimizda xomashyo kamligi uchun ular har doim ham to'la quvvatda ishlamayapti. Yog'-moy eksportiga ruxsat berilsa, ishlab chiqarish 120 ming tonnaga oshib, 240 ming tonna ozuqa yem tayyorlanishi hisob-kitob qilingan [6].

Adabiyotlar tahlili. Bu sohada olimlardan Adamchuk V.V., Blyaxman A.S., Kuzmin S.A., Maslova I.S., Odegov Yu.G., Pavlenkov V.A., Romashov O.V., Rudenko G.G., Slezinger G.E., A.Kibanov, A.Kotlyar, G.Avagyan, V.Plaksya, D.Markovich va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. Bu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan Q.Abdurahmonov., R.Ubaydullaev., S.Abdullayev., Sh.Zaynutdinov., B.Murtazayev, N.To'xliyev, X.Abulqosimov, D.Rahimova., O.Ata-Mirzayev., U.S.Muxitdinova., U.P.Umurzaqov., Sh.Xolmo'minov., D.Ortiqova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bu ilmiy izlanishlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ida fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar faoliyat yuritadi.

Tadqiqotlar qishloq xo'jaligining paxtachilik, donchilik, meva-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, chorvachilik, veterinariya va boshqa sohalarini yanada rivojlantirishga, yer, suv, mineral o'g'it va boshqa moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash kabi muhim masalalar yechimiga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 martdagi 1-sonli majlisi bayoni asosida 2020 yilning 10-12 may kunlari «O'zekspomarkaz»da o'tkazilgan "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar X Respublika yarmarkasi"da tizimdagi muassasalar olimlari tomonidan yaratilgan 95 ta ishlanma namoyish etildi va tizimdagi 15 ta ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan fermer xo'jaliklari va boshqa buyurtmachilar o'rtasida 250 dan ortiq, jami 3,7 mlrd. so'mlik o'zaro manfaatli shartnomalar imzolangan.

Tahlillar va asosiy natijalar. 2023 yil yakunlariga ko'ra qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot(xizmat)larning umumiy hajmi 317781,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

2019 yil yakunlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi YaIM tarkibida 19,7 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yil ushbu ko‘rsatkich 26,9 foizni tashkil qilib, YaIMning mutlaq o‘shish sur‘atiga ta’siri 1,1 f.p. ni tashkil qilgan. Agrar tarmoqning bunday o‘shish sur‘atlariga erishishida, asosan, go’sht (104,8 %), sabzavot (104,1 %), kartoshka (104,7 %), uzum (105,5 %), ovlangan baliq (120,7 %)larning o‘shish sur‘atlari ijobiy ta’sir qilganligini ko‘rish mumkin. Hududlar kesimida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (53,4 %), eng kam ulush Navoiy viloyatida (15,0 %) kuzatilgan.

Quyidagi 1-jadvalda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yaratilgan mahsulot va ekin maydonlarining yillar davomida o‘zgarishi keltirilgan:

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yaratilgan mahsulot va ekin
maydonlarining yillar davomida o‘zgarishi [3]

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Ekin maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3260,7
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, joriy narxda, mlrd. so‘m	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5

1-jadvalda ekin maydonlari bilan yetishtirilgan mahsulot hajmi o‘zgarishi keltirilgan bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yillar davomida o‘sganligi va ekin maydonlari kamayib borganligini kuzatish mumkin. 2024 yil yakunlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarmoq tarkibida 96,7 %ni tashkil qilgan bo‘lib, bu hududlar kesimida yuqori ulush Jizzax (99,1 %), Qashqadaryo (99,1 %), Buxoro (98,1 %) hamda Xorazm (98,1 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin.

Quyidagi 2-jadvalda O‘zbekiston hududlari miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish dinamikasi keltirilgan:

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari miqyosida qishloq xo‘jaligi
mahsulotlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish dinamikasi (foizda) [2]

Hududlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Jami	103,1	105,4	106,3	106,1	102,7	103,9
Qoraqalpog‘iston Resp.	65,6	104,6	121,3	109,8	102,3	104,2
Andijon viloyati	110,2	104,7	108,0	106,3	101,1	104,5
Buxoro viloyati	106,3	109,2	107,6	107,1	101,9	104,7
Jizzax viloyati	100,1	104	106,4	106,7	102,7	104,2
Qashqadaryo viloyati	89,4	109,6	107,0	106,1	103,7	101,3
Navoiy viloyati	105,0	107,5	105,9	106,6	103,3	104,4

Namangan viloyati	111,5	103,1	105,8	106,3	104,0	107,0
Samarqand viloyati	104,8	103,9	107,0	107,1	102,5	103,1
Surxondaryo viloyati	106,7	100,5	105,2	106,3	105,3	104,2
Sirdaryo viloyati	101,9	112,9	105,6	105,5	101,8	103,8
Toshkent viloyati	114,9	103,8	102,9	103,3	100,1	104,1
Fargʻona viloyati	113,5	107,2	106,1	105,7	104,9	103,2
Xorazm viloyati	82,8	103,2	102,5	105,5	101,7	102,9

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqonchilik 49,9 foiz, chorvachilik 50,1 foiz ulushni tashkil qilgan. Bunda Andijon viloyatida dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish eng yuqori ulush (61,9 %, 38,1 %)ga ega boʻlgan boʻlsa, Navoiy viloyati eng kam ulushga (34,2%, 65,8%) ega boʻlganligini koʻrish mumkin.

Mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining xoʻjalik toifalari dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklar ulushi (65,9 %), fermer xoʻjaliklari ulushi (29,3 %), qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi (4,8 %) koʻrinishida taqsimlangan.

3-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligida yetishtirilgan mahsulotlar dinamikasi, ming tonnada [3]

Mahsulot turi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Don va dukkakli ekinlar	4 101,4	6 540,9	7 504,3	8 173,5	7 636,0	7 634,6
Kartoshka	731,1	924,2	1 694,8	2 586,8	3 143,8	3 285,6
Sabzavotlar – jami	2 644,7	3 517,5	6 262,4	9 390,0	10 431,4	10 850,2
Oziqbop poliz	451,4	615,3	1 182,4	1 853,6	2 134,4	2 285,3
Meva va rezavorlar	790,9	949,3	1 676,3	2 467,9	2 812,6	2 852,6
Uzum	624,2	641,6	979,3	1 518,2	1 606,9	1 695,3
Soʻyish uchun mol va parranda (tirik vaznda)	841,8	1 061,5	1 461,4	2 033,4	2 519,6	2 635,1
Sut	3 632,5	4 554,9	6 169,0	9 027,8	10 976,9	11 274,2
Olingan tuxum, mln. dona	1 254,4	1 966,7	3 061,2	5 535,4	7 781,2	7 788,4
Asal, tonna	2 685,0	2 115,7	3 171,9	10157,0	13 357,8	14 066,9
Pilla, tonna	16479,0	16211,0	25 151,8	26293,0	20 941,9	22 769,9

Yuqoridagi 3-jadval maʼlumotlaridan mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish yillar davomida oʻsish tendensiyasiga ega boʻlganligini koʻrish mumkin.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning haqiqiy “drayveri” boʻlgan agrar sohada iqtisodiyotda band ishchi kuchining qariyb 27 foizi (2020 yil) faoliyat yuritadi va yalpi ichki mahsulotning 25 foizi (2021 yil) mazkur sektor hissasiga toʻgʻri keladi.

Respublikamizda 2021 yilda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi joriy baholarda 303,4 trln. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 2020 yilga nisbatan 103,9 foizga teng boʻlgan. Oʻzbekistonda 2019 yilda YaIMning 26,9 foizi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida yaratilgan boʻlsa, 2024 yilda bu koʻrsatkich 25,0 foizni tashkil etib, 1,9 foiz bandga pasaygan. Shu davrda YaIM hajmi 1,91 martaga koʻpaygani holda agrar sohada yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) 1,62 martaga oʻsib, YaIMning ilgarilash koeffitsienti 1,179 martani yoki 117,9 foizni (1,91:1,62) tashkil etgan. Respublikamizda 2019-2024 yillar mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining qoʻshimcha oʻsish surʻati qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida 61,9 foizga, qishloq xoʻjaligida esa 62,3 foizga teng boʻlib, uning hissasi agrar soha mahsulotida 94,2-96,6 foizni tashkil etmoqda. Tahlil amalga oshirilayotgan davrlarda fermer xoʻjaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi 33,7 foizga (74946,1:56060,7) koʻpayib, 2024 yilda joriy baholarda 88900,7 mlrd. soʻmni yoki barcha toifadagi xoʻjaliklardagi hissasi 29,3 foizni tashkil etib, 2019 yilga nisbatan 7 foiz bandga pasaygan. Chunki fermer xoʻjaliklarining koʻp tarmoqli sohaga aylanishi natijasida ular tomonidan qayta ishlangan sanoat xarakteridagi mahsulotlarning hajmi koʻpayishi bu koʻrsatkichga oʻz taʼsirini koʻrsatgan deb izohlash mumkin (4-jadval).

4-jadval

Oʻzbekiston Respublikasida fermer xoʻjaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot va qoʻshilgan qiymat hajmi dinamikasi

Yillar	Fermer xoʻjaliklari mahsuloti xajmi, mlrd. soʻm		Qishloq xoʻjaligi mahsulotida fermer xoʻjaliklari hissasi, %	Qishloq xoʻjaligida yaratilgan qoʻshilgan qiymat, mlrd. soʻm		Fermer xoʻjaliklarida yaratilgan qoʻshilgan qiymat, mlrd. soʻm	
	Joriy narxda	2020 yil narxida		Joriy narxda	2020 yil narxida	Joriy narxda	2020 yil narxida
2013	11201,0	56060,7	36,3	20018,7	92580,6	7266,8	32398,2
2014	15714,2	57854,6	34,7	28880,4	98320,6	10021,5	33435,0
2015	18397,5	61441,6	33,0	35180,9	105399,7	11609,7	35508,0
2016	21325,7	64145,0	32,1	40803,4	112356,0	13097,9	37070,3
2017	24620,1	66197,7	30,1	51522,3	119434,5	15508,2	38256,6
2018	30620,8	68514,6	30,7	62351,8	126720,0	19142,0	39595,5
2019	34271,5	70227,4	29,7	72236,2	134703,3	21454,2	40585,4
2020	43358,1	64960,3	29,3	87344,5	136050,4	25591,9	37541,5
2021	48667,0	60478,1	26,0	109227,9	136322,5	28399,2	34951,2
2022	60394,7	66828,3	27,9	125615,8	140821,1	35046,8	38621,0
2023	70570,7	70570,7	28,2	144623,3	144623,3	40783,8	40783,8
2024	88900,7	74946,1	29,3	174709,6	149829,7	51015,2	42823,0

Qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoatini esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga respublikamiz eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi. Respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2023 yil) jami eksportga nisbatan 6,7 foizni tashkil etgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, bir gektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7 barobar, gilosdan 6 barobar, yong'oqdan 5 barobar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud.

Qayd qilish joizki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi bazasi yuqori qiymatli meva-sabzavot ekinlarini ko'paytirish orqali diversifikatsiya qilinmoqda. Ushbu ekinlar ko'proq foyda keltirishi bilan birga yaxshi haq to'lanadigan mavsumiy ish manbai hamdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmi 2023 yilda 2021 yilga nisbatan 1,8 martaga oshib, 1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Eksport geografiyasi esa 43 tadan 77 davlatga ko'paydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlari: paxta-to'qimachilik klasteri, meva-sabzavot klasteri, chorvachilik klasteri, g'allachilik klasteri, sholichilik klasteri va pillachilik klasteri usullarida amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib, "mamlakatimizda 97 ta paxta-to'qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g'allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to'qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo'nalishida 34 ta, parrandachilik bo'yicha 10 ta, baliqchilik tarmog'ida 36 ta, asalarichilik yo'nalishida 15 ta fermer xo'jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, keyingi ikki yilda respublikada pillachilik sohasida 62 ta klaster ishga tushirilib, ular tomonidan 600 milliard so'mga yaqin mahsulot ishlab chiqarildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, yangi intensiv bog' va tokzorlar barpo etildi, sabzavot va poliz ekinlari qo'shimcha ekildi. Bunday keng ko'lamli islohotlar bugunga kelib o'z mevasini bermoqda. 2024 yilda 2023 yilga nisbatan poliz mahsulotlari 6,9 foiz, kartoshka 4,7 foiz, sabzavotlar 4,1 foiz, meva va rezavorlar 1,4 foiz, uzum 5,5 foiz ko'p yetishtirildi.

Agrar sohada yaqin kelajak va istiqbolda amalga oshiriladigan dasturiy vazifalarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilinishi mamlakatimiz agrar va oziq-ovqat sanoati ravnaqida o'ziga xos yangi solnoma ochdi. Agrar sektorda mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 2023 yilga qaraganda 2024 yilda 1,1 foiz bandga jadallashgan yoki 1,011 martaga tezlashib, 4,0 foizni tashkil etgani holda joriy narxda 317,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Natijada mamlakat yalpi qo'shilgan qiymatining 26,9 foizi muayyan sohada yaratilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasidagi iqtisodiy islohotlar tufayli aniq-ravshan siljishlarga erishib, qishloqda ko'p ukkladli xo'jalik shakllandi. Qishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liqligini inobatga olib, mamlakatimizda klasterlar faoliyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (5-jadval).

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot klasterlarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tonna [2]

№	Hududlar	Yetishtirilgan jami hosil, tonna	Shundan					
			Ichki iste'mol uchun	Salmog'i, %	Qayta ishlash uchun	Salmog'i, %	Eksport uchun	Salmog'i, %
1.	Samarqand viloyati	317699	68337	21,5	199105	62,7	50257	15,8
2.	Andijon viloyati	236442	202735	85,7	6101	2,6	27606	11,7
3.	Toshkent viloyati	206722	85640	41,4	78042	37,8	43040	20,8
4.	Farg'ona viloyati	170714	99636	58,4	19755	11,6	51323	30,1
5.	Namangan viloyati	142019	42412	29,9	92642	65,2	6965	4,9
6.	Sirdaryo viloyati	38717	16198	41,8	8141	21,0	14378	37,1
7.	Jizzax viloyati	32777	29141	88,9	1924	5,9	1712	5,2
8.	Xorazm viloyati	26780	1900	7,1	13800	51,5	11080	41,4
9.	Buxoro viloyati	19450	1300	6,7	12700	65,3	5450	28,0
10.	Navoiy viloyati	16536	8930	54,0	5546	33,5	2060	12,5
11.	Surxondaryo viloyati	16506	5996	26,3	630	3,8	9880	59,9
12.	Qoraqalpog'iston R.	15602	2600	16,7	200	1,3	12802	82,1
13.	Qashqadaryo viloyati	11390	1655	14,5	4120	36,2	5615	49,3
Jami		1251354	566480	45,3	442706	35,4	242168	19,4

Yuqoridagi 5-jadvalga ko'ra, viloyatlar kesimida meva-sabzavotchilik rivojlangan hududlarda meva-sabzavot maydonlarining klasterlar bilan qamrab olinishi 20,4-62,1 foizni tashkil etadi. Respublikamizda 2020 yilda yetishtirilgan 1 mln. 251 ming 354 tonna meva-sabzavot mahsulotini 45,5 foizi ichki iste'mol bozoriga, 35,4 foizi qayta ishlashga yo'naltirilgan va 19,4 foizi eksport qilingan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda O'zbekiston qiymati 1,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 1,5 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti Rossiya Federatsiyasi (\$255,4 mln.), Qozog'iston (\$251,4 mln.), Qirg'iziston (\$181,1 mln.) va Pokiston (\$75,5 mln.) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi. Samarqand viloyatida 2022 yilda 113,8 million AQSh dollariga teng 144,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. 2021 yilning mos davriga nisbatan 46,7 million AQSh dollariga pasayishi kuzatildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i haqiqiy ma'nodagi drayver hisoblanib, mazkur tarmoqning hozirgi kundagi ahamiyati yanada ortiq bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillardagi pandemiya bilan bog'liq holatlar sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada oshirib yubordi. Shu ma'noda, mamlaktimizda agrar sohada bir qator ijobiy islohotlarni amalga oshirish, aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari salmog'ini oshirish va ularni sifat jihatidan yanada takomillashtirish maqsadida,

sohada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish kabi ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuningdek, istiqbolda qishloq xo'jaligi tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim: maqsadli dasturlarni amalga oshirish; yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni barpo etish; tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish; qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish hamda bozorni mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash; ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksport ko'lamini kengaytirish va boshqalar.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga bayram tabrigi <https://president.uz/uz/lists/view/4009.2>. Tyurgo A. Izbrannyye ekonomicheskie proizvedeniya – M., 2021.-s 17.
2. Karieyva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda menejment qarorlarining iqtisodiy tahlili, Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil, oktyabr. № 10-son <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>, 981-988 betlar.
3. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
4. Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning iqtisodiy va buxgalterlik jihatlari, Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal 2025 yil, 3 son veb sayti www.ooqxssrtxm.uz hamda <https://t.me/agroiqtisodiyot>, 159-162 betlar.
5. Poluxin A.A. Organizatsionno-ekonomicheskiy mexanizm modernizatsii selskogo xozyaystva Rossii/ A.A. Poluxin// Agrarnaya Rossiya. – 2012 - №5 s. 23-29.
6. Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqatni rivojlantirishda qishloq xo'jaligining roli, Agrobiznes, fan va texnologiyalar ilmiy-amaliy elektron jurnal, №6/2025, <https://agrobiznesjournal.uz/uz>, 224-231 betlar.
7. S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoliqov, O'.A Abdullayev and H.F.Dilmurodov, The role of agriculture in Uzbekistan's food economy, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>, 1-10 pages.
8. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009
9. Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligi korxonalarida xarajatlarni boshqarish va hisobga olishning innovatsion usullari: menejment va buxgalteriyaning o'zaro integratsiyasi, Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot

- ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil, oktyabr. № 10-son <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>, 742-747 betlar.
10. Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari, Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil, iyun. № 7-son <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>, 463-467 betlar.
 11. Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish, Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil, iyun. № 6-son, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>, 775-779 betlar.
 12. Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligida biznesni boshqarish, Agrobiznes, fan va texnologiyalar ilmiy-amaliy elektron jurnal, №2/2025, <https://agrobiznesjournal.uz/uz>, 348-359 betlar.
 13. Toshboyev Abduraim Jabbarovich, Siddiqov Zoxid Tulkunovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish, Agrobiznes, fan va texnologiyalar ilmiy-amaliy elektron jurnal, №1/2025, <https://agrobiznesjournal.uz/uz>, 15-21 betlar.
 14. Kasimov Botir Sadriddinovich, Safarov Asqarbek Asadullayevich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining roli, Agrobiznes, fan va texnologiyalar ilmiy-amaliy elektron jurnal, №1/2025, <https://agrobiznesjournal.uz/uz>, 292-299 betlar.
 15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Lex.uz.
 16. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozilgan dis.avtoref.-T.: 2020.-b36.
 17. Умурзаков У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тошкент: –2023. –43 б.
 18. www.stat.uz.
 19. <https://uzdaily.uz/uz/ozbekiston-prezidentiga-2025-yil-uchun-oziq-ovqat-sanoatini-rivojlantirish-rejalari-taqdim-etildi/>